

Germaniya metodikasining asosiy xususiyatlari

1. *Integratsiyalashgan ta'lim modeli*

- Nazariya (30%) va amaliyot (70%) nisbati
- Har bir nazariy modul uchun amaliy topshiriqlar

2. *Vaka-studiyalar (Case-study)*

- Haqiqiy nemis korxonalarining biznes holatlari
- Talabalar tomonidan mustaqil yechim ishlab chiqish

Loyiha asosida o'qitish

- Mini-biznes loyihalarini amalga oshirish
- Virtual kompaniyalarda simulyatsiya qilish
- O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

O'quv dasturini moslashtirish

- Mahalliy biznes muhitiga mos vaka-studiyalar yaratish
- O'zbekiston qonunlariga muvofiq modullarni ishlab chiqish

O'qituvchilarni tayyorlash

- Germaniya mutaxassislari bilan ustoz-shogird dasturlari
- Metodik qo'llanmalarni mahalliy tilga tarjima qilish

Infratuzilmani rivojlantirish

- Politeknikumlarda biznes-simulyatorlar bilan jihozlangan sinflar
- Mahalliy korxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish

Pilot loyiha sifatida joriy etish:

- Bir nechta yetakchi Politeknikumlarida sinov dasturi

O'quv materiallarini ishlab chiqish

- Biznes asoslari uchun integratsiyalashgan darslik va ish daftarlari
- Raqamli o'quv resurslari platformasi

Korxonalar bilan hamkorlikni mustahkamlash

- Har bir talaba uchun amaliyot joyini ta'minlash
- Muvaffaqiyatli tadbirkorlarni darslarga jalb qilish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rauner, F. (2012). **Dual Vocational Education and Training**. Springer.
2. BIBB (2021). **Framework Curriculum for Business Basics in VET**. Germaniya.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2020). **Kasbiy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi**.
4. UNESCO-UNEVOC (2019). **Germany's Dual System: Best Practices**.
5. ILO (2022). **Work-Based Learning in Vocational Education**.

**INGLIZ TILIDA FAOL ISHLATILADIGAN TIBBIY IBORALAR VA ULARNING
O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI HAMDA MA'NOLARI**

*Habibulloyeva Sohiba Komiljon Qizi Denov tadbirkorlik
va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti
yo'nalishi 1 bosqich talabasi*

Kirish. Ushbu maqolada ingliz tiliga oid bir qancha sog'liq va tibbiyot mavzusidagi iboralar hamda ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari tahlil qilinadi. Har qanday tilda idiomatik ifodalar madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha ma'no yo'qolishiga olib keladi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda

ularning semantik mazmuni, konnotativ qiymati va kontekstga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chet elliklar uchun o'rganilayotgan tilda iboralarni qo'llash biroz qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularning asl ma'nosini o'rganuvchilar yaxshi anglab yetmagan bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sog'liq bilan bog'liq idiomalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarjimada qanday yondashuvlarni talab etishi haqida mulohazalar yuritiladi.[2]

Asosiy qism. Iboralar tarjima qilinayotganda eng ko'p foydalaniladigan tarjima turlari quyidagilardan iborat:

- so'zma-so'z tarjima qilish usuli;
- ekvivalent asosida tarjima qilish usuli;
- erkin tarjimamqilish usuli;
- kontekst asosidagi tarjima qilish usuli;

So'zma-so'z tarjima qilishda, iboralar aynan, struktura va semantic jihatdan mos keladi. Ekvivalent tarjimada esa, mos kelishidan ko'ra ma'nosiga ko'ra ko'proq diqqat qaratiladi, ammo ma'lum qism o'xshash ham bo'lishi mumkin. Erkin tarjima usulida struktur va semantika ham mos kelmasligi ammo faqat ma'no muhim hisoblanadi. Kontekst asosidagi tarjima usulida esa, so'z atrofidagi so'zlarga ko'ra va ma'noga ko'ra tarjima qilinadi.[1]

Jamiyatda ishlatiladigan tibbiyotga oid eng faol iboralar quyidagilar:

1. To'g'ri tashxis – yarim davo.

A disease concealed is half cured.

Ma'nosi: Muammoni sir tutish uni hal qilmaydi, aksincha, bir kun kelib, u baribir fosh bo'ladi degan ma'noni beradi. Bu iboraning bir qismi so'zma -so'z tarjima qilingan bo'lsa-da, qolgan qismida madaniyatlardan kelib chiqqan holda kontekstga mos holda tarjima qilingan.[6]

2. Azob ko'rmay – rohat yo'q.

No pain, no gain.

Ma'nosi: Qiyinchilik va og'riqsiz yutuqlarga erishib bo'lmaydi. Ushbu iborada ayni so'zlari mos kelmasa ham aks ettirayotgan g'oyasi aynan o'zi. Qolaversa, O'zbek tilida unga mos "Azob ko'rmay rohat yo'q", iborasidan eng ko'p mos keladigani yo'q.

3. O'lganning ustiga tepgan.

To add insult to injury.

Ma'nosi: Og'riqli yoki yomon vaziyatni yanada yomonlashtirish. Bu ibora ham xalqimizda juda ko'p ishlatiladigan iboralardan biri bo'lib, ushbu ibora ham ekvivalent ya'ni ma'nosi aynan mos ibora olingan.

4. Sog' tanda – sog'lom aql.

A sound mind in a sound body.

Ma'nosi: Aqlan sog'lom bo'lish uchun jismonan sog'lom bo'lish kerak. Bu iborada struktura, tarkibiy qismlar, ma'no ham bir xil bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilingan iboralardan biri. Garchi bu ikki madaniyatning til orasidagi umumiy qadriyatlari yaqin bo'lmasa-da, bir til guruhiga mansub bo'lmasa-da, bu ibora ikki xalqda ham bir xil.

5. Dardning achchiqligi – davo bilgan odamga ayon.

Only those who suffer know the pain.

Ma'nosi: Og'riq yoki qiyinchilikni faqat boshidan kechirgan odam tushunadi. Bu ibora ekvivalent tarjima- ma'nosiga ko'ra mos ibora orqali tarjima qilingan.

6. Shifokor dori beradi, lekin barchasi Ollohdan.

Doctors treat, but God heals.

Ma'nosi: Shifokorlar yordam berishi mumkin, lekin yakuniy natija yuqoridan bo'ladi. Bu ibora struktura jihatidan o'xshash ibora bo'lib, inson harakati va ilohiy taqdir haqida gap boradi. Iborada ega aynan o'zi ammo ish-harakat boshqa so'zlar yordamida olingan. Bu yarim so'z va yarim ekvivalentlik asosida tarjima qilingan iboralarga misol bo'ladi.[4] Bu iborada madaniyatlar o'rtasida

umumiylik ya'ni o'xshashlik bor. Chunki diniy jamiyatda shifoning ilohiy manbaga bog'liq ekani keng tarqalgan bo'lib u hatto iborada ham talqin qilingan.

7. Dard ham, davo ham – til ostida.

The disease and the cure are under the tongue.

Ma'nosi: So'z odamni ham ranjitishi, ham davolashi mumkin. Bu ibora strukturaviy semantik jihatdan mos kelgan bo'lib, bu ham aynan so'zma-so'z tarjima qilingan iboralardan biri hisoblanadi.

8. Har bir kasallikning davosi bor.

Every disease has its cure.

Ma'nosi: Har qanday muammo yoki kasallikning yechimi mavjud. Bu ibora ham tuzlishi va ma'nosi mos kelgan bo'lib, bu ham so'zma-so'z ekvivalent tarjima sosida qilingan. Bu holatda ikki xalqda, o'xshashlik mavjud.

9. Kasallik faqat jasadni emas, ruhni ham zaiflashtiradi.

Illness weakens not only the body but also the spirit.

Ma'nosi: Kasallik faqat jismoniy holatni emas, balki ruhiy holatni ham yomonlashtiradi. Bu ibora mukammal mos kelgan iboralardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki struktura va ma'no juda o'xshash.

Til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki milliy tafakkur va madaniyatning aksidir. Shu jihatdan qaralganda, idiomatik birliklarni tarjima qilish jarayoni oddiy so'z almashtirish emas, balki madaniyatlararo muloqot va tafakkurni uzviy tushunishni talab qiladi.[5] Ingliz va o'zbek tillaridagi sog'liq mavzusiga oid idiomalar ko'plab umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ularning ba'zilarida o'ziga xos farqlar mavjud. Ushbu maqola misolida ko'rinib turibdiki, bunday iboralarni tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima qilish usuli bilan emas ma'nosi o'xshash bo'lgan boshqa iboralarni keltirish samaraliroq hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi tadqiqotlar tarjimonlar va tilshunoslar uchun nafaqat tarjima mahoratini oshirish, balki madaniy tafovutlarni chuqur anglashda ham muhim ahamiyatga ega.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chorueva Iroda Kurbonboevna. (2024). ANALYSIS OF STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS CONTAINING MEDICAL LEXEMES. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 2(10), 22–27.
2. Komiljonovna, K. G. (2025, February). THE USAGE OF PHRASEOLOGICAL AND IDIOMATIC UNITS IN THE NOVEL "THE WHITE SHIP" BY CHINGIZ AITMATOV. In The Conference Hub (pp. 30-33).
3. Khushbakova, N. (2021). LINGUA-CULTURAL ASPECT OF LITERARY TRANSLATION. Экономика и социум, (5-1 (84)), 243-247.
4. Uktamovna, T. S. (2025). HYBRID WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE: LINGUISTIC AND SEMANTIC ASPECTS. Western European Journal of Linguistics and Education, 3(03), 122-126.
5. Hafizov, S. B. (2024). Representative features of linguistic manipulation in the communicative situation. Social Science and Education, 1(2), 41-47.
6. Muradova, S. (2024). THE LINGUISTIC AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF HYDRONYMS IN ENGLISH TOPONYMY. TAMADDUN NURI JURNALI, 12(63), 25-27.